Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 3 (2024) · “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish tendensi... DOI: 10.5281/zenodo.24316881

1. Дусмуратов Р.Д., Ризаев Н.К., Назаров Х.Ҳ–Молиявий ҳисобот ва аудитнинг халқаро стандартлари / Ўқув қўлланма – Т.: «», 2020 – б.
2. Б.А.ХАСАНОВ ва бош. Бухгалтерия ҳисоби, Т.: 2020. – 1025 б.
3. Каримов А, Ибрагимов А, Ризаев Н. Халқаро молиявий ҳисобот стандартлари. Дарслик. - Т.: ТМИ. «Iqtisod-Moliya», 2020 й. - 392 б.
4. Kuljonov O., Xusinov I., Jumanazarov S. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. O’quv qo’llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. –237 b.

AGROBIZNESNI INNOVASION RIVOJLANTIRISH LOYIH ALARINI MOLIYALASHTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Tuychiyev Abduraxmon G‘ofurovich,
TDIU dotsenti

Annotatsiya. Annotatsiya: *Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida agrobiznesni tashkil etish va sohaning qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishidagi roli hamda agrobiznesni innovatsion rivojlantirish loyihalarini moliyalashtirishning metodologik asoslari o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *agrobiznes, boshqarish, oziq-ovqat xavfsizligini, agrosanoat integratsiyasi, klaster modeli, infrastruktura, erkin iqtisodiy zona, mahsulotlar eksport geografiyasi, innovatsiyalar transferi va b.q.*

Agrobiznes hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo‘lib, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda asosiy rolni o‘ynaydi. Shu sababli bugungi kunda, sohani zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan ta’minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ushbu sohani moliyaviy resurslarga bo‘lgan talabini qondirish eng dolzarb vazifalaridan biridir. Chunki, aholini toza-ekologik oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta’minlash masalalarini ichki kuchli va zaif tomonlarini ham, tashqi imkoniyatlari va havf-xatarlarini ham har tomonlama chuqur o‘rganishni taqozo etmoqda. Aynan ana shu masalalarni hal etilishida agrobiznes sub’ektlarini innovatsion rivojlantirish loyihalarini moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorij mamlakatlari bo‘yicha amalga oshirilgan bibliografik tahlil asosida innovatsiyalar va innovatsion faoliyat sohasidagi nazariy qarashlar, metodologik bazis va rivojlanish tendensiyalariga xissa qo‘shgan xorijlik olimlar qatoriga, masalan, quyidagilarni kiritish mumkin: J.Madsen, R.Solow, P.Draker, N.Menkyu, Y.Shumpeter, Sh. Groh, J.Hauschildt, S.Salomo va S.Chepel.

Xorij mamlakatlaridagi mavjud nazariy-metodologik bazisni asosan endogen, va yarim endogen innovatsion iqtisodiy o‘sish hamda R&D (*Research and Development*) va inson kapitalini rivojlantirish modellari tashkil etadi. R.Solou modeli barqaror sharoitlarda aholi sonining ko‘payishini va texnologik taraqqiyot(progress)ning umumiy iqtisodiy o‘sishga va ishlab chiqarish sur’atlarini

Published: 17.05.2024

Cite this article: Tuychiyev Abduraxmon G‘ofurovich (2024). Agrobiznesni innovasion rivojlantirish loyihalarini moliyalashtirishning metodologik asoslari. Emro Science and Education, 1(3). https://doi.org/10.5281/zenodo.24316881

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

barqaror o‘sishiga esa texnologik taraqqiyotning mavjudligi sabab bo‘ladi deb e’tirof etadi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun ko‘p ishlar qilinmoqda, ammo mahsulot yetishtirish hajmining o‘sishi avtomatik ravishda eksport hajmini ko‘payishiga olib kelmaydi. Sababi, eksportda avvalambor, potensial iste’molchiga qaysi mahsulot kerakligini va uning ehtiyojini o‘rganish kerak. Shuningdek, haqiqiy iste’molchi kim va u qaysi mamlakatlarda yashaydi kabi savollarga ham javob bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, mevalar eksporti haqida gap ketganda, bog‘ barpo etishdan boshlab toki u hosilga kirgungacha ketgan vaqtda (ushbu yillar davomida) iste’molchilarning ehtiyoji va talabi qanday o‘zgarishini oldindan ko‘ra bilish lozim. Bunda qishloq xo‘jaligi maxsulotlari iste’molchilarini o‘rganish, bozor talabi uchun mahsulot ishlab chiqarish, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishda yangi innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va innovatsion rivojlantirish loyihalarini moliyalashtirish masalalarini o‘rganish uchun marketing tadqiqotlarini o‘rganish talab etiladi.

Agrobiznes faoliyatining maqsadi – iste’mol bozorini yetarli miqdorda sifatli, toza-ekologik qishloq xo‘jalik mahsulotlari, sanoatni esa xom ashyo bilan uzluksiz ta’minlash orqali foyda ko‘rishdan iborat.

Keltirilgan muammolar agrobiznesni rivojlanishiga ichki va tashqi innovatsiyalar transferini makro-, mezo- va mikro pog‘onalarda moliyalashtirilishining nazariy-metodologik bazisi va mexanizmi takomillashtirishni taqazo etadi. Shu munosabat bilan, quyidagi gipoteza o‘rinli: “Tizimli yondashuvni qo‘llovchi ijtimoiy-iqtisodiy sistemologiyaga (IIS) asoslangan zamonaviy mulk to‘g‘risidagi multifan (ZMM) va moliya-kredit sohasi sistemologiyasi (MKSS) qoidalarini biznesni raqobatli rivojlanishiga (jumladan kichik biznesga) innovatsiyalar transferi moliyalashtirilishining turli ichki va tashqi omillar ta’sirida amalga oshirilishi tizimi va undagi jarayonlarni kompleks ifodalab o‘rganish uchun nazariy-metodologik bazis sifatida qo‘llash mumkin”. Mazkur gipoteza quyidagi argumentlar bilan ham izohlanishi mumkin:


- tarixiy retrospektiv tahlil asosida aytish mumkinki, innovatsion (tijoratlashtirilishi) loyihalarni ichki va tashqi manbalar yordamida investitsion moliyalashtirish sohasi ilm-faniga oid har qanday mavjud ixtisoslashgan nazariyaning amal qilish davri ushbu soha amaliyotining uzluksiz rivojlanishi ta’sirida bo‘lganligi sababli chegaralangan bo‘ladi. Masalan, innovatsiyalarni biznesga transferini moliyalashtirish masalalari to‘g‘risidagi XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridagi qarashlar ushbu masalalarning hozirgi davrdagi mazmun-mohiyatiga to‘liq mos kelmasligi mumkin. Xuddi shunga o‘xshab, mazkur masalalarga oid hozirdagi davrdagi nazariy qarash va xulosalar uzoq kelajakda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan hodisa va jarayonlar uchun o‘ta cheklangan yoki tarixiy-retrospektiv ahamiyatga ega bo‘ladi. Demak, hozirgi zamondagi nazariyalar ham vaqt o‘tishi bilan turli rivojlanish omillari ta’sirida takomillashib borishi ehtimoldan holi emas. Aynan IIS, ZMM va MKSS ham zamonaviy nazariyalardan biri deb qabul qilinishi mumkin;

- biznes sub’ektlari innovatsion rivojlanishiga innovatsiyalar transferi ichki va tashqi moliyalashtirishi mexanizmining unda global, mintaqaviy, makroiqtisodiy va

mezo pog‘onalardagi beqarorliklar sharoitida namoyon bo‘luvchi risklar transformatsiyasi va transferi tabiatini hisobga oluvchi yangi yoki takomillashtirilgan yohud samarali metodlari va modellarini izlash va asosli tanlab qo‘llash dolzarb va muhim masalalardan bo‘lib qolmoqda deb aytish mumkin.

Aytilganlar kontekstida, IIS hamda unga asoslanuvchi ZMM va MKSS qoidalari innovatsiyalar transferi va/yoki tijoratlashtirilishi loyihalarini ichki va tashqi moliyalashtirish (mos ravishda, *autsorsing – inglizcha: outsourcing, ya’ni outer-source-using so‘zlar birikmasi sifatida loyihani tashqi moliyalashtirish manbasi resursidan foydalanish ma’nosini anglatadi, insorsing – inglizcha: insourcing, ya’ni inter-source-using so‘zlar birikmasi sifatida loyihani ichki moliyalashtirish manbasi resursidan foydalanish ma’nosini anglatadi*) mexanizmining maxsus ixtisoslashgan terminlar va nazariy-metodologik bazisini shakllantirish uchun qo‘llanilishi mumkin degan xulosaga kelish mumkin. Ushbu xulosa kontekstida biznes sub’ektlari innovatsion rivojlanishiga innovatsiyalar transferini moliyalashtirishning ichki (insorsing) va tashqi (autsorsing) metodlarini o‘zida mujassamlashtiruvchi hamda ularni har birining xossa va hususiyatlariga mos keluvchi tuzilmaviy-funksional modelini quyidagi rasmda ko‘rish mumkin. Xususan olganda modelda: TO – tashqi omil; NO – natija omili; BO – kompaniya boshqaruvi omili; LH – loyiha bo‘yicha hisobot; LBO – loyiha boshqaruvi omili; IITL – Biznes sub’ekti ichki innovatsiyasi transferining loyihasi; IITLM – ichki innovatsiyasi transferining loyihasi moliyalashtirish.

Quyida keltirilgan rasmda ichki innovatsiyasi transferining loyihasi moliyalashtirishning makro-, mezo- va mikro tizimlari qamrab olingan.



1-rasm. Biznes sub’ektlari rivojlanishiga tashqi va ichki innovatsiyalar transferini insorsing va autsorsing metodlari yordamida makro-, mezo- va mikro pog‘onalarda moliyalashtirishning umumlashtirilgan modeli

Yuqorida ko‘rsatilgan ichki (*insorsing*) va tashqi (*autsorsing*) moliyalashtirish metodlari hamda 1-rasmda keltirilgan modelning ishlash prinsiplariga mos keladigan

biznes sub’ektlari innovatsion rivojlanishiga ichki yoki tashqi innovatsiyalar transferini ichki yoki tashqi moliyalashtirishning alohida yoki kombinatsiyalashtirilgan yohud umumlashgan mexanizmlarni shakllantirish mumkin. Shu bilan birga, mazkur model (1-rasm) biznes sub’ektlari innovatsion rivojlanishiga ichki yoki tashqi innovatsiyalar transferini va tijoratlashtirilishini moliyalashtirish jarayonlarining alohida yoki kombinatsiyalashtirilgan yohud umumlashgan ishlash mexanizmlarni turli omillar ta’sirida kompleks ifodalab tizimli o‘rganish imkonini beradi.

Bunda 1-rasm shaklida berilgan modeldagi ichki omillar (ya’ni NO, LH, BO, LBO, ITL, IITL kabi omillar) va NATIJAning o‘zgarishi tashqi omillarning negativ yoki pozitiv xarakterga ega ekanligiga bog‘liq. Ya’ni, natija tashqi omillar(TO)ning pozitiv yoki negativligiga qarab ijobiy yoki salbiy tomonga o‘zgarishi mumkin. Bunda, agarda TO ta’siri negativ bo‘lsa, bunday salbiy ta’sirni loyiha boshqaruvi (LB) kompaniya boshqaruvi (KB) bilan kelishilgan tarzda kompensatsiya qilib ijobiylashtirishga xarakat qiladi (ya’ni bu boradagi regulyativ funksiyasini bajaradi).

Umuman olganda, 1-rasmdagi model bo‘yicha LB va KB tomonidan qaror qabul qilish funksiyasi LH ko‘rsatkichlari barqaror va loyiha talablari darajasida bo‘lishiga bo‘ysundirilgan bo‘ladi. Bunday modellarga asoslanib ularning ishlash prinsiplari va jarayonlarini matematik formallashtirish mumkin. Bunda LB va KB birgalikda vaqt birligi ichida o‘zgaruvchan tashqi va ichki omillar ta’sirida LH ko‘rsatkichlarining o‘zgarishiga qarab zaruriy risk-menejment, boshqarish va investitsion qarorlar qabul qilish mexanizmi funksiyasini bajaradi.

Umumiy xulosa sifatida, tizimli yondashuvni qo‘llovchi ijtimoiy-iqtisodiy sistemologiyaga (IIS) asoslangan zamonaviy mulk to‘g‘risidagi multifan va moliya-kredit sohasi sistemologiyasi qoidalarini biznesni raqobatli rivojlanishiga (jumladan agrobiznesga) innovatsiyalar transferi moliyalashtirilishining turli ichki va tashqi omillar ta’sirida amalga oshirilishi tizimi va undagi jarayonlarni kompleks ifodalab o‘rganish uchun nazariy-metodologik bazis sifatida qo‘llash mumkin.

Tizimli yondashuvni qo‘llovchi ijtimoiy-iqtisodiy sistemologiyaga (IIS) asoslangan zamonaviy mulk to‘g‘risidagi multifan (ZMM) va moliya-kredit sohasi sistemologiyasi (MKSS) qoidalarini biznesni raqobatli rivojlanishiga (jumladan kichik biznesga) innovatsiyalar transferi moliyalashtirilishining turli ichki va tashqi omillar ta’sirida amalga oshirilishi tizimi va undagi jarayonlarni kompleks ifodalab o‘rganish uchun nazariy-metodologik bazis sifatida qo‘llash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori PQ-4863-son 15.10.2020 y

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 15 martdagi “Ichki iste’mol bozorini asosiy turdagi oziq-ovqat maxsulotlari bilan kafolatli ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi №135 qarori.

3. Mirziyoyev Sh.M. Meva-sabzavotchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish va eksportini oshirish, aholi tomorqalaridan samarali foydalanishni ta’minlash masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi. 05.11.2019. www.xabar.uz.
4. Modeli upravleniya nauchno-innovatsionnoy deyatelnostyu vuza”/ avtorы mejdunarodnoy kollektivnoy monografii: Sh.Sh. Shoxa’zamiy, D.V. Puzankov, A.V. Vaxobov, V.M. Kutuzov, A.V. Muravev, M.Yu. Shestopalov, N.G. Rыjov, I.S. Terenteva. - T.: Iqtisod-moliya, 2006. – 242 s.
5. Shoxa’zamiy Sh.Sh. Traktat o smart tsifrovoy respublike. Monografiya. -T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020. -352 s.
6. Shoxa’zamiy Sh.Sh. Puti povыsheniya konkurentosposobnosti gosudarstvennыx vыsshix uchebnыx zavedeniy.// “Oliy ta’lim taraqqiyoti istiqbollari” O‘zbekistondagi Erasmus+ milliy ofisi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tashkiliy ko‘magi asosida nashr etiladigan ilmiy-metodik jurnal, 13-son. - T.: NTM “NEO Hamkor”, 2023. -b.15-47.
7. To‘ychiyev A.G‘. Kichik biznesga innovatsiyalar transferini moliyalashtirish. Monografiya. “Fan” nashriyoti. Toshkent 2020. -224 b.
8. To‘ychiyev A.G‘. Agrobiznesni tashkil etish va boshqarish. O‘quv uslubiy majmua. Andijon 2020. 235 bet.

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS MEXANIZMLARI

Umarova Gulzodaxon Qodirbekovna
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
“Mutaxassislik fanlari” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Markaziy Osiyoda jadal rivojlanayotgan mamlakat bo'lgan O'zbekiston iqtisodiyotni erkinlashtirish va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish yo'lida salmoqli yutuqlarga erishdi. Biroq, mamlakat investitsiya manbalari va vositalarini diversifikatsiya qilishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ushbu maqolada O'zbekistonning xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirish uchun moliyaviy vositalardan foydalanish istiqbollari ko'rib chiqilgan. Topilmalar shuni ko'rsatadiki, mustahkam kapital bozorini rivojlantirish, Islom moliyasini rivojlantirish va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish O'zbekistonni jozibador investitsiya yo'nalishi sifatida ko'rsatishi mumkin.*

Kalit So'zlar: *to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, moliyaviy vositalar, kapital bozorlari, islom moliyasi, davlat-xususiy sheriklik, investitsiya muhiti, me'yoriy-huquqiy baza.*

Аннотация. *Узбекистан, быстро развивающееся государство в Центральной Азии, добился значительных успехов в либерализации экономики и привлечении прямых иностранных инвестиций (ПИИ). Однако страна сталкивается с трудностями в диверсификации источников и инструментов инвестирования. В данной статье рассматриваются перспективы использования Узбекистаном финансовых инструментов для привлечения*